



## O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**Muallif:** Azizov Islomxon <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Samarqand viloyati, Jomboy tumani 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14378342>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek musiqa ijrochiligining bugungi globallashuv jaaryonidagi ayrim masalalari yuzasidan mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik, Shashmaqom, maqom, musiqa globallashuv, o'qish, o'qitish.

Musiqashunoslik va etnomusiqashunoslik ilmiy yo'nalishlari milliy musiqa madaniyatni saqlash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv jarayonida milliy musiqa merosning xalqaro miqyosda tan olinishi va uning asliyatini yo'qotmasdan rivojlanishi muhim masalalardan biriga aylangan. Shuningdek, aynana ana shu musiqashunoslik va etnomusiqashunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar mavzulari dolzarb muammolar yechimiga bag'ishlangan bo'lib, ularni o'rganish va yechimini topish bir qator muhim vazifalarni belgilash va uldarni amalga oshirishni taqazo etadi. Xususan, o'zbek milliy musiqa san'atining eng noyob janrlaridan biri hisoblangan maqom va u bilan bog'liq bo'lgan ijodiy jarayonlar, o'qitish va o'rgatish masalalari yechimni kutayotgan dolzarb muammolar qatorida turibdi. Keyingi masala uning zamonaviy maktab dasturlaridagi o'rni, hamda yosh avlodga yetkazish borasidagi mexanizm va metodlar bilan izohlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning san'at va madaniyat, shu jumladan, maqom san'ati haqida shunday deganlar: “O'zbek madaniy merosini saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, o'zbek milliy san'atini saqlash va yangi avlodlarga yetkazish, yoshlarni madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni qo'llab-quvvatlash zarur vazifalardandir”. O'zbekiston maqomini jahon sahnasida tanitish va xalqaro miqyosda maqom san'atining o'rni haqida gapirar ekan, prezidentimiz san'at va madaniyat yashasa, millat ham yashab, bardavom bo'lishini ta'kidlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'zbek maqomi va milliy musiqa merosi haqida bildirgan fikrlari hamda ko'rsatmalari bu yo'nalishda yuksak ahamiyat kasb etadi. Bu, albatta, maqom va boshqa milliy musiqiy janrlarni yoshlar orasida kengroq tanitish va ularning tarixiy-madaniy ahamiyatini oshirish masalasida davlat darajasidagi yondashuvni talab etadi.

Musiqashunoslik va etnomusiqashunoslik sohalari xalq musiqasini o'rganish va ommalashtirish orqali jamiyat ma'naviyati va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Ammo aynan milliy musiqa, xususan, maqom ijodiga yetarli e'tibor berilmasligi uning zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Yosh avlodning milliy merosga nisbatan begonalashuvi ko'p jihatdan bu asarlarni maktab yoshdagi o'quvchilarga oz va oddiy shaklda tanishirilishi tufayli yuzaga kelmoqda.

Ushbu san'at janrini o'rganish va saqlash milliy o'zlikni anglashda, yosh avlodni milliy musiqa bilan yaqindan tanishtirishda katta rol o'ynaydi. Bu o'rinda hozir amalda bo'lgan Shashmaqomning asliyatini saqlash va an'anaviy usulda ijro etish bugungi globallashtirish davrida dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy ijrochilik uslublari va texnologiyalar ta'sirida bu an'anaviy musiqaning o'zgartirilishi xavfi mavjud.

Shashmaqomni o'qitish va yoshlarga yetkazish zarur. Shashmaqom ta'limida keng qo'llanilishi mumkin, ammo o'qitish usullarini rivojlantirish, ayniqsa, yoshlarni qiziqtirish uchun o'ziga xos yondashuvlarni talab etadi. Bunga innovatsion texnologiyalar va amaliy mashg'ulotlarni kiritish orqali erishish mumkin. Shashmaqomni o'rganishni rivojlantirish uchun ta'lim metodlarini va milliy an'analarni saqlash ham muhim.

Shashmaqom o'zbek milliy musiqasining boy merosi sifatida yoshlarga erta yoshdan tanishtirilishi lozim. Biroq, bugungi kunda bolalar Shashmaqomni bir oz begona, eskilikdan qolgan san'at turi sifatida qabul qilishadi. Buning asosiy sabablaridan biri – o'quv jarayonida Shashmaqomni eski, shakllarda eshittirishda davom etishimizdir. Bu nafaqat uning asli go'zalligi va chuqur ma'nosini to'liq yetkazmaydi, balki yosh avlodga unga nisbatan uzoqlashish hissini ham uyg'otishi mumkin.

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun Shashmaqomni zamonaviy studiyalarda yuqori sifatli, sifatli usullarda qayta yozib olish va undan ta'lim jarayonida foydalanish tavsiya etiladi. Bu usul nafaqat Shashmaqomning tovush imkoniyatlarini kengroq ko'rsatadi, balki bolalarda milliy merosga nisbatan hurmat va qiziqishni oshiradi. Bu yondashuv milliy musiqa ta'limida zamonaviylik va asliyatni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning milliy o'zlikni anglashiga ham katta hissa qo'shadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Karomatov F. M. O'zbek xalq musiqasi merosi. XX-asr. Terma, yalla, qarsak, kirish maqolasi. – Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti. 1985. B. -2 - 23.

Ibrohimov O.A. „O'zbek xalq musiqasi ijodi“ (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994y. B.62.

Panjiyev Q. B. O'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022. B. 80.